



UDK: 811.133.1512

Nodirjon OTAQULOV,
PhD, dotsent, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: nodirorient@gmail.com

O‘zMU professori, f.f.d D.Djafarova taqrizi asosida

SUBKOLLOKVIAL FRAZEOLOGIZMLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz va o‘zbek tillaridagi subkollokvial frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mazkur birliklarning funksional-semantik tabiati, nutqiy qo‘llanish sharoitlari hamda ekspressiv-stilistik yuklamasi ilmiy manbalari asosida o‘rganildi. Subkollokvial frazeologizmlar maishiy, emotsional, ijtimoiy-siyosiy va intellektual sohalar kesimida tasniflanib, ularning pragmatik qiymati aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur birliklar ichida maishiy sohani aks ettiruvchi frazeologizmlar ustunlik qiladi. Bu holat frazeologik lug‘atlardan tanlab olingan materiallar va korpus ma‘lumotlari orqali dalillandi.

Kalit so‘zlar: subkollokvial, frazeologizm, pragmatika, ekspressiv, stilistik belgilar, nutqiy akt, kommunikativ funksiya.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУБКOLLOKВИАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

Аннотация

В данной статье анализируются прагматические особенности субколлоквиальных фразеологических единиц во французском и узбекском языках. В рамках исследования на основе научных источников изучены функционально-семантическая природа данных единиц, условия их речевого употребления, а также их экспрессивно-стилистическая нагрузка. Субколлоквиальные фразеологизмы классифицированы по тематическим сферам: бытовой, эмоциональной, социально-политической и интеллектуальной, что позволило определить их прагматическую значимость. Результаты анализа показывают, что среди рассматриваемых единиц доминируют фразеологизмы, относящиеся к бытовой сфере. Данное положение подтверждается материалами, отобранными из фразеологических словарей, а также корпусными данными.

Ключевые слова: субколлоквиальный, фразеологизм, прагматика, экспрессивность, стилистическая маркированность, речевой акт, коммуникативная функция.

PRAGMATIC FEATURES OF SUBCOLLOQUIAL PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article analyzes the pragmatic features of subcolloquial phraseological units in the French and Uzbek languages. The study examines their functional-semantic nature, conditions of usage in discourse, and expressive-stylistic load based on relevant scholarly sources. Subcolloquial phraseological units are classified into thematic domains, including everyday life, emotional, socio-political, and intellectual spheres, which allows for identifying their pragmatic value. The results demonstrate that phraseological units related to the domain of everyday life are the most dominant. This finding is supported by data obtained from phraseological dictionaries and corpus-based materials.

Keywords: subcolloquial, phraseological unit, pragmatics, expressivity, stylistic marking, speech act, communicative function.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nutqning pragmatik jihatlarini o‘rganish, xususan, subkollokvial qatlamga mansub frazeologik birliklarning funksional imkoniyatlarini tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Fransuz tilida subkollokvial frazeologizmlar jonli nutqda keng qo‘llanilib, ular kommunikativ jarayonda nutq ishtirokchilarining emotsional holati, ijtimoiy maqomi va munosabatini ifoda etishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Subkollokvial frazeologizmlar adabiy til normasidan ma‘lum darajada chetlashgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi asosan norasmiy muloqot muhiti bilan chegaralanadi. Shu bois, ularni o‘rganishda nafaqat semantik, balki pragmatik va lingvokulturologik omillarni ham hisobga olish zarur.

FBlarning soddasozlashuv nutqiga mansubligi, avvalo, ularning leksik-strukturaviy tarkibi orqali aniqlanadi. Jumladan, bunday birliklar tarkibida qo‘pol va dag‘al so‘zlar, somatizmlar, eskirgan leksema va arxaizmlar, dialektizmlar, keng tarqalgan atoqli otlar, inson va jinsga ishora qiluvchi nomlar, shuningdek, hayvonlar nomlari faol ishtirok etadi. Masalan, fransuz tilidagi avoir du culot, se casser la gueule, avoir la trouille [10] kabi birliklar subkollokvial qatlamning

tipik namunasi sifatida qaraladi. Ushbu leksik komponentlar frazeologizmlarning ekspressiv va peyorativ xususiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Subkollokvial frazeologiya muammosi bir qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular mazkur qatlamning tematik qamrovi nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, lug‘at boyligi va ekspressiv imkoniyatlari bilan ajralib turishini ta‘kidlaydilar. Jumladan, Yu. Skrebnev [15], V. Gak [12], P. Giro [6], F. Gade [4], L. Kalve [2], J. Gudaye [5] ishlarida subkollokvial frazeologiyaning semantik maydoni cheklanganligi, biroq uning funksional yuklamasi yuqori ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tilshunos L. Kalve [2] ta‘kidlaganidek, subkollokvial frazeologiya tomonidan qamrab olinadigan asosiy tematik tushunchalar doirasi turli tillarda deyarli mos keladi. Uning fikricha, mazkur holatni nafaqat fransuz tiliga, balki boshqa tillarning “past, quyi” frazeologiyasiga ham tatbiq etish mumkin. Darhaqiqat, subkollokvial frazeologizmlarning tematik yaqinligi til universalisasi xususiyatiga ega bo‘lib,

ular turli tillarda – fransuz, ingliz, rus yoki o'zbek tillarida – o'xshash semantik markazlar atrofida jamlanadi.

Xususan, bunday markazlar quyidagi konseptual sohalarni qamrab oladi, ya'ni inson hayoti va kundalik faoliyati, emotsional holatlar va psixik kechinmalar, jism va somatik tasavvurlar, peyorativ harakatlar va salbiy baholash va moddiy boyliklar va ijtimoiy maqom hamda insonlar o'rtasidagi munosabatlar.

Mazkur universal tematik yo'nalishlar subkollokviyal frazeologiyaning kognitiv va lingvokulturologik asosini tashkil etadi hamda uning tillararo qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim manba ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda subkollokviyal frazeologik birliklarni yig'ish, tasniflash va tahlil qilish kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Avvalo, empirik materiallar frazeologik korpus hamda yalpi tanlash metodi yordamida izohli, bir va ikki tillik, shuningdek, ixtisoslashtirilgan frazeologik lug'atlardan saralab olindi. Xususan, tadqiqot manbalari sifatida I.G. Reyning "La phraseologie du français" [10], Colin, Mével, Leclère muallifligidagi "Dictionnaire de l'argot français et de ses origines" [3] kabi nufuzli lug'atlardan keng foydalanildi.

Shu bilan birga, SFBlarning etimologik va semantik rivojlanishini aniqlash maqsadida V. Gakning "Новый французско-русский фразеологический словарь" [12] va Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tili frazeologik lug'ati" [8] hamda boshqa qator manbalar jalb etildi. Ushbu manbalar asosida shakllantirilgan materiallar bazasi SFBlar ro'yxatini sezilarli darajada kengaytirish va ularni ko'pqirrali tahlil qilish imkonini berdi.

Subkollokviyal leksika va frazeologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida mazax, kulgi, qo'pollik va quyi moddiy obrazlarga tayangan ifoda usullari alohida ahamiyatga ega. Bu holatni M. Baxtinning karnavalizatsiya konsepsiyasi doirasida izohlash mumkin. Uning ta'kidlashicha, bunday ifoda vositalari xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, xalq madaniyati uchun xos bo'lgan "dunyoni karnavalcha his etish" fenomeni bilan bog'liqdir. Karnavalizatsiya jarayonida ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy normalarning vaqtinchalik buzilishi kuzatiladi, bu esa insonga ruhiy yengillik berish, kundalik hayotning rangligiga nisbatan ramziy qarshilik ko'rsatish va reallikni qayta anglash imkonini yaratadi [11].

Tadqiqot jarayonida SFBlarni yirik pragmatik sohalarga ajratishda empirik materiallar tahliliga tayanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, fransuz va o'zbek tillari subkollokviyal lug'atlarida SFBlarning asosiy qismi "maishiy" sohaga tegishlidir. Bu holat mutlaqo tabiiy bo'lib, mazkur frazeologik qatlamning xalq nutqi va kundalik muloqot bilan bevosita bog'liqligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar. Subkollokviyal frazeologik birliklarning (SFBlar) ham miqdoriy, ham pragmatik jihatdan tahlili shuni ko'rsatadiki, ular orasida eng keng tarqalgan va funksional jihatdan faol sohani "maishiy" pragmatik maydon tashkil etadi. Mazkur holat subkollokviyal qatlamning tabiati, ya'ni uning xalq nutqi, kundalik turmush va norasmiy kommunikatsiya bilan chambarchas bog'liqligi bilan izohlanadi.

Maishiy soha doirasida SFBlar quyidagi asosiy tematik guruhlarini qamrab oladi: "pul", "jism", "o'lim", "ish/mehnat", "aldov/firibgarlik", "janjal/jazolash", "qo'rqinch/qo'rqoqlik", "spirtli ichimlik", "ovqat", "kiyim", "inson va uning xarakteristikalarini", "bekorchilik", "mushkul ahvol", "sevgi/do'stlik/nikoh", "ahmoqlik" va boshqalar. Ushbu tematik qator subkollokviyal frazeologiyaning universal semantik yadrosini tashkil etib, turli tillarda deyarli mos keladigan kognitiv modellarni namoyon qiladi [14].

Subkollokviyal frazeologizmlar pragmatik nuqtai nazardan nutq aktlarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ular orqali nutq subyektlari o'z munosabatini, bahosini

va emotsional holatini ifoda etadi. Masalan, crever de rire – "juda qattiq kulish" (kuchli emotsional holatni ifoda etadi); en avoir marre – "joniga tegmoq" (negativ baholash va subyektiv munosabatni bildirish).

Ushbu birliklar nutqda ekspressivlikni kuchaytirish bilan birga, kommunikativ maqsadni aniq va ta'sirchan yetkazishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ularning pragmatik funksiyasi baholovchi, ekspressiv va ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlar bilan belgilanadi [7].

Subkollokviyal frazeologizmlar mazmun jihatidan bir nechta asosiy mavzularga ajratiladi:

a) maishiy sohadagi frazeologizmlar, ya'ni bu guruh eng keng tarqalgan bo'lib, insonning kundalik hayoti, turmush tarzi va oddiy holatlarini aks ettiradi. Misol, mettre la main à la pâte – "ishga bel bog'lamoq"; se tourner les pouces – "bekor yurmoq". Bu kabi birliklar nutqda real hayotiy vaziyatlarni obrazli va ta'sirchan ifoda etish imkonini beradi;

b) emotsional-baholovchi frazeologizmlar, ular nutqda subyektiv munosabatni ifodalaydi: avoir le cafard – "qayg'uga botmoq"; péter les plombs – "asabdan chiqmoq". Mazkur birliklar kommunikativ jarayonda adresantning ichki holatini ekspressiv tarzda yetkazadi;

c) ijtimoiy-siyosiy sohadagi frazeologizmlar, bu guruh jamiyat, hokimiyat va ijtimoiy munosabatlarga oid mazmuni qamrab oladi: tirer les ficelles – "parda ortidan boshqarmoq";

d) intellektual faoliyatga oid frazeologizmlar, aqliy jarayonlar va fikrlash bilan bog'liq holatlarni ifodalaydi: se creuser la tête – "bosh qotirmoq".

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, subkollokviyal frazeologizmlar ichida maishiy sohadagi birliklar ustunlik qiladi. Bu holat quyidagi omillar bilan izohlanadi, bular nutqning asosiy qismi kundalik muloqotga tegishli ekanligi va inson tajribasining markazida maishiy faoliyat turishi hamda subkollokviyal qatlamning tabiiy ravishda norasmiy kommunikatsiyaga moslashganligi.

Frazeologik lug'atlar materiallari ham ushbu tendensiyani tasdiqlaydi:

"Spirtili ichimlik" tematik guruhida tahlil natijalariga ko'ra, fransuz tilidagi subkollokviyal frazeologiyaning "maishiy" sohasida eng yirik va mahsuldor tematik guruhni spirtili ichimlik va ichkilikbozlik bilan bog'liq birliklar tashkil etadi. Bu guruh insonning fiziologik holati, ijtimoiy muhiti va madaniy stereotiplari bilan bevosita bog'liq holda shakllangan.

Fransuz tilidagi subkollokviyal frazeologik birliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular orasida eng faol va mahsuldor qatlam "maishiy" pragmatik soha hisoblanadi. Ushbu soha o'zining semantik rang-barangligi, ekspressiv imkoniyatlarining kengligi va miqdoriy ustunligi bilan ajralib turadi hamda tildagi analogik pragmatik sohalarga nisbatan ustunlik qiladi [14]. Bu holat subkollokviyal frazeologiyaning xalq nutqiga chuqur singib ketganligi va uning kundalik hayot bilan uzviy bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbek tilidagi maishiy sohadagi asosiy tematik guruhlar:

Shaxs xarakteri va holati – ko'zi chaqnamoq, farishtadek halol, tosh yurak, bag'ri keng bo'lmoq, bag'ri tosh bo'lmoq, ko'ngli tor bo'lmoq, ko'nglini keng tutmoq, qo'li uzun (bo'lmoq), har narsaga (ishga) to'g'onoq va b.

Pul va boylik – suv tekin, uch pulga (sariq chaqaga) qimmat bo'lmoq, choy puli, qozoni moy, cho'michi moy bo'lmoq, qo'li qisqa bo'lmoq va h.k.

Spirtili ichimlik va ichkilikbozlik – bir ko'tarishda, bir zumda, biroz ichib qo'ymoq, surunkasiga ichmoq, o'lguday ichmoq, o'chib qolguncha ichmoq, qulog'igacha ichmoq (to'yib ichmoq) va h.k [14].

Qiyosiy-chog'ishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, sevgi va munosabatlarga oid subkollokviyal frazeologizmlar o'zbek va rus tillarida ham mavjud bo'lsa-da, fransuz tilida ularning qo'llanish chastotasi va ekspressiv diapazoni ancha

kengroqdir. Bu holat fransuz milliy-madaniy an'analarida past, quyi uslubning tarixi chuqur ildizlarga ega ekanligi bilan izohlanadi.

V.S. Yelistratov ta'kidlaganidek, subkollokvial frazeologiyada "olamni kulgili odamiylikka o'rgatish" tendensiyasi kuzatiladi, ya'ni inson tanasi va uning funksiyalari kulgi prizmasi orqali qayta interpretatsiya qilinadi [13]. Shu nuqtai nazardan, subkollokvial pragmatikaning muhim xususiyati sifatida antropomorfiklik namoyon bo'ladi.

Fransuz madaniyatida mazkur tendensiyaning ildizlari o'rta asrlar kulgi madaniyatiga borib taqaladi. M.M. Baxtin tomonidan tahlil qilingan Fransua Rablening "Gargantuya va Pantagryuel" asarida "so'z va tana o'rtasidagi beo'lchov uzilish" fenomeni alohida ta'kidlanadi [11]. Ushbu konsepsiya doirasida inson tanasi, ayniqsa uning quyi qismi, ijtimoiy normalarga nisbatan alternativ, karnavalcha qarashlar orqali qayta talqin qilinadi.

O'rta asrlarda cherkov tomonidan ruhning tana ustidan ustunligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa-da, xalq madaniyatida, aksincha, inson tanasi va uning fiziologik funksiyalari kulgi, ironiya va giperbolizatsiya orqali erkin ifoda etilgan. Shu jihatdan, subkollokvial frazeologiya mazkur ikki qarama-qarshi tendensiya, ya'ni rasmiy axloqiy normalar va xalq kulgi madaniyati o'rtasidagi dialektik munosabatni namoyon etadi.

Tahlil jarayonida ajratilgan tematik guruhlar o'zaro chegaralanmagan bo'lib, ular xalq tezaurusida semantik yaqinlik asosida bir-biriga o'tib ketishi kuzatiladi. Bu holat subkollokvial frazeologiyaning dinamik va kontinuum tabiatini ko'rsatadi.

Fransuz tilidagi "maishiy" pragmatik soha nafaqat miqdoriy jihatdan ustun, balki struktur va semantik jihatdan

ham murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu soha milliy olam manzarasini shakllantirishda muhim ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega. Subkollokvial frazeologiyada karnavalizatsiya, antropomorfizm va peyorativ-ekspressiv baholash asosiy semiotik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosalar va takliflar. Qiyosiy nuqtai nazardan, fransuz tili subkollokvial frazeologiyasi ekspressivlik va tematik qamrov jihatidan o'zbek tiliga nisbatan kengroq diapazonga ega ekanligi aniqlandi. Subkollokvial frazeologizmlarning korpus lingvistikasi asosida tahlilini amalga oshirish, o'rganilayotgan tillarda qiyosiy leksikografik baza yaratish, mazkur birliklarning pragmatik tarjima modellarini ishlab chiqish, subkollokvial frazeologiyaning lingvokulturologik kodlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni kengaytirish lozim.

Subkollokvial frazeologiya inson hayotining eng bazaviy va universal sohalarini qamrab oladi, barcha guruhlarda ekspressivlik, metaforiklik va peyorativlik ustun xususiyat sifatida namoyon bo'ladi, somatik va moddiy obrazlar asosiy semantik mexanizm sifatida xizmat qiladi, SFBlar nutqda emotsional ta'sirni kuchaytirish, baholash va kommunikativ ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Shu tariqa, subkollokvial frazeologizmlar nafaqat tilning "past, quyi" qatlamini, balki uning eng jonli, dinamik va pragmatik jihatdan faol qismini tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni ilgari surish imkonini berdi, subkollokvial frazeologizmlar tilning ekspressiv-frazeologik fondida alohida o'rin egallab, inson va uning xarakteristikalariga oid konseptlar atrofida yuqori konsentratsiyada jamlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Bally Ch. *Traité de stylistique française*. – Genève, 1951.
2. Calvet L.-J. *L'argot*. P.: Presses Universitaires de France, 1999. – 128 p.
3. Colin J.-P. *Dictionnaire de l'argot français et de ses origines*. P.: Larousse, 2001. – 908 p.
4. Gadet F. *Le français populaire*. P.: Presses Universitaires de France, 1997. – 128 p.
5. Goudaillier J.-P. *Argotrie et argotophobie*. P.: Langue française, 1991. – P. 12.
6. Guiraud P. *L'argot*. P.: Presses Universitaires de France, 1956. – 126 p.
7. Otaqulov N.B. *Kollokvial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari*. – Toshkent: O'zMU Xabarları, 2025. – B. 356.
8. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tili frazeologik lug'ati*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 407 b.
9. Rey A., Chantreau S. *Dictionnaire des expressions et locutions*. – Paris, 2011.
10. Rey I.G. *La phraseologie du français*. Toulouse: Presses Universitaires du Mirail, 2002. – 268 p.
11. Бактин М.М. *Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса*. – М.: Рус. яз., 1990.
12. Гак В.Г. *Новый французско-русский фразеологический словарь*. – М.: Рус. яз., 1993. – 1194 с.
13. Елистратов В.С. *Словарь русского арго: Материалы 1980-1990 гг.* – М.: Русские словари, 2000. – 694 с.
14. Отакулов Н.Б. *Француз ва ўзбек тилларида субкollokvial фразеологизмларнинг лисоний хусусиятлари*. – Toshkent: "Grandkondorprint", 2024. – 128 б.
15. Скребнев Ю.М. *Введение в коллоквиалистику*. – Саратов: Изд-во Саратовск. ун-та, 1985. – 210 с.
16. Телия В.Н. *Прагматика идиом в функционально-параметрическом отображении*. – М.: Наука, 1990. – С. 32-37.